



AKTUAR MOLIYA VA BUXGALTERIYA HISOBI ILMIY JURNALI

Vol. 4 Issue 06 | pp. 124-134 | ISSN: 2181-1865
Available online <https://finance.tsue.uz/index.php/afa>

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA TASHQI SAVDO STATISTIKASI KO'RSATKICHLARINI TAKOMILLASHTIRISH



Abdujalilova Bibisora Baxodir qizi
O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi
Statistika agentligi kadrlar malakasini oshirish
va statistik tadqiqotlar instituti doktaranti

Annotatsiya: Mazkur tadqiqotda O'zbekiston Respublikasi tashqi savdo statistikasi ko'rsatkichlarini statistik tahlili o'rGANildi. 2010 yildan 2023 yilgacha bo'lgan davrda, O'zbekiston Respublikasida YaIM, asosiy kapitalga investitsiyalar hajmi va kichik biznes korxona subyektlari mahsulot hajmi kabi o'zgaruvchi omillar, natijaviy omil sifatida tovarlar va xizmatlar eksporti va importi o'rtasida bog'liqlik tekshirildi. Ushbu tadqiqotda stata panelida standart deviation va OLS regressiya modellari yordamida emperik tahlili amalga oshirildi.

Kalit so'zlar: Tashqi savdo, tovar va xizmatlar eksporti, tovar va xizmatlar importi, YaIM, asosiy kapitalga investitsiyalar, kichik biznes korxona subyektlari, tashqi iqtisodiy faoliyat, standart deviation (standart og'ish), regressiya

Kirish

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi "2022 — 2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi PF-60-son Farmoniga muvofiq, tashqi savdoni tartibga solish mexanizmlarini takomillashtirish maqsadida: mahalliy korxonalar (ularning vakolatli vakillari)ga Yevropa Ittifoqi davlatlariga yuqori qo'shilgan qiymatli mahsulotlarni eksport qilishda tashish xarajatlarini 70 foizgacha miqdorda kompensatsiya qilishga subsidiyalar taqdim etildi. Muvofiqlikni baholash organlarini xalqaro ILAC/IAF tashkilotlari a'zosi hisoblangan akkreditatsiya idorasi tomonidan akkreditatsiyadan o'tkazish bilan bog'liq xarajatlar Eksportni rag'batlantirish agentligi tomonidan qoplab berilishi, eksport qilishda tashish xarajatlarini kompensatsiya qilishga subsidiyalar taqdim etiladigan yuqori qo'shilgan qiymatga ega mahsulotlar ro'yxatini tasdiqlash uning Eksport qiluvchilarni qo'llab-quvvatlashning yagona portalida (www.exportportali.uz) e'lon qilib borilishi, "Bojaxona ombori" rejimida olti oydan ko'p bo'lgan tovarlarning bojaxona rasmiylashtiruvida bojaxona to'lovlari bo'yicha imtiyozlarni qo'llashni taqiqlovchi tartib bekor qilinishi, yoshlar tadbirkorligini yanada qo'llab-quvvatlash, shu jumladan innovatsion texnologiyalarga asoslangan eksportbop mahsulotlar ishlab chiqarish va xizmatlar ko'rsatish faoliyatini rag'batlantirish maqsadida Yosh tadbirkorlarni qo'llab-quvvatlash jamg'armasi mablag'lari hisobidan ularga 500 ming AQSh dollarigacha kreditlar ajratishga ruxsat berilishi ta'kidlangan.

“O’ztreyd” va “O’zsanoateksport” aksiyadorlik jamiyatlariga tashqi savdo kompaniyalarini aylanma mablag’lar bilan ta’minlash maqsadida Eksportni qo’llab-quvvatlash jamg’armasi hisobidan 10 million AQSh dollar mablag’ ajratilgan (Sh. Mirziyoyev PF-60-sonli Farmon, 2022).

Xalqaro iqtisodiy munosabatlaming an’anaviy va eng rivojlangan ko’rinishlaridan biri tashqi savdo hisoblanadi. Jahon iqtisodiyotida ro’y berayotgan xalqaro iqtisodiy munosabatlar umumiy hajmining 75-80%i tashqi savdoning ulushiga to’g’ri keladi. Dunyoda mavjud boigan har qanday mamlakat uchun tashqi sav doning roli kattadir. Iqtisodchi olim J.Saksning fikricha, “dunyodagi har qanday davlatning iqtisodiy muvaffaqiyati tashqi savdoda ko’rinadi. Hozirgi kunga qadar hech bir mamlakat jahon iqtisodiy tizimidan ajralgan holda sogiom iqtisodiyotni hosil qila olgani yo’q (A.V. Vaxabov, D.A. Tadjibayeva, Sh.X. Xajibakiyev, 2015).

Import va eksport tashqi savdo vositalaridir. Tashqi savdo tovarlar va xizmatlarda amalga oshiriladi, bular import, eksport va tashqi savdo balansini o’z ichiga oladi. Jami import, eksport va tashqi savdo balansi tovar va xizmatlarning qisqacha mazmuni sifatida taqdim etiladi.

tovarlar eksporti – O’zbekiston Respublikasi bojxona hududidan tovarlarni qayta olib kirish majburiyatisiz olib chiqish, agar qonun xujjalarda boshqacha tartib nazarda tutilmagan bo’lsa;

tovarlar importi – O’zbekiston Respublikasi bojxona hududiga tovarlarni olib kirish, ularni qayta olib chiqish majburiyatisiz;

tashqi savdo aylanmasi – muayyan davr uchun mamlakat eksporti va importi qiymatining miqdori;

Jahon taraqqiyotida tashqi iqtisodiy omilning ahamiyatining ortib borishi axborot tizimiga talablarni kuchaytiradi, uning yordamida milliy iqtisodiyotning jahon iqtisodiyoti bilan aloqasi, ikki tomonlama va ko’p tomonlama iqtisodiy aloqalar tahlil qilinadi. Ushbu turdagagi statistik ma'lumotlarni tanqidiy tushunish, ularni maxsus tahliliy mezonlar, usullar va ko'rsatkichlar to'plamidan foydalangan holda professional baholash har qanday davlatning tashqi iqtisodiy faoliyatini iqtisodiy tahlil qilishning asosiy vazifasidir (N.E. Grigoruk, S.A Galkin M. Grigoruk, N Evgenevna , G.A Aleksevich, 2015).

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili

Mustaqillik yillarda O’zbekiston Respublikasi tashqi savdo munosabatlarini erkinlashtirish borasida chuqur islohotlar amalga oshirilishi natijasida tashqi savdoning geografik va tovar tarkibida jiddiy ijobiy o’zgarishlar yuz berdi. O’zbekiston bugungi kunda 45 dan ortiq mamlakatlar bilan ikki tomonlama savdo aloqalariga ega. Tashqi savdo aylanmasi 1991-yildagi 2,1 mlrd. dollardan 2013-yilda 28,9 mlrd. doll, hajmiga yetdi, ya’ni 36,1 martaga oshdi. Ayni tashqi savdo balansida – 0,7 mlrd. dollarlik salbiy saldodan 1,3 mlrd. dollarlik ijobiy saldoga erishildi. Bu esa ishonchli to’lov balansi va iqtisodiyotimiz barqarorligining muhim ko’rsatkichi bo’lib xizmat qilmoqda. Tashqi savdo tarkibida chuqur ijobiy o’zgarishlar ro’y bermoqda. Bugungi kunda Respublika tashqi savdo aylanmasi (TSA) 14,8 mlrd dollar yetgan. Bunda eksport hajmi 5,7 mlrd dollarni, import hajmi esa 9,1 mlrd dollarni tashkil etgan. O’tgan davrga mos davr bilan taqqoslaganda eksport hajmi 2,9 foizga qisqargan, import hajmi 23,4 foizga oshgan.

Tashqin savdo saldosi esa 3,4 mlrd dollarni tashkil etgan. Jumla dan, keyingi yillar mobaynida eksport tarkibida raqobatdosh tayyor mahsulotlar salmog'ining barqaror o'sish tendensiyasi va homashyo yetkazib beruvchi tarmoqlar mahsulotlari ulushining kamayib borayotgani yaqqol ko'zga tashlanmoqda. Tahlillar ko'rsatishicha, 1990-2013-yillar davomida ekport va importni diversifikatsiya qilish, uning tarkibini takomillashtirish borasidagi chora-tadbirlar natijasida mamlakatimiz eksportining tovar tarkibida ijobiy siljishlar ro'y berdi (A.V. Vaxabov, D.A. Tadjibayeva, Sh.X. Xajibakiyev, 2015). 2023-yilda Respublika savdo aylanmasi (TSA) 14,8 mlrd dollar yetgan. Bunda eksport hajmi 5,7 mlrd dollarni, import hajmi esa 9,1 mlrd dollarni tashkil etgan. O'tgan davrga mos bilan taqqoslaganda eksport hajmi 2,9 foizga qisqargan, import hajmi 23,4 foizga oshgan. Tashqi savdo saldosi esa 3,4 mlrd dollarni tashkil etgan.


Tashqi iqtisodiy faoliyat bo'yicha umumiy ma'lumotlar bazasi har qanday biznesning rivojlanish istiqbollarini tahlil qilishda keng qo'llaniladigan axborot resursi bo'lib, shuning uchun bu erda foydalanuvchilar doirasi juda keng. Bular hukumatlar va biznes hamjamiyatlari, moliyaviy tuzilmalar, statistik ma'lumotnomalarni tuzuvchilar va tahlilchilar, turli mintaqaviy, milliy va xalqaro tashkilotlar va boshqalar. Har bir foydalanuvchi tegishli tashkilotlar tomonidan to'plangan birlamchi ma'lumotlardan tortib jamlangan statistik ko'rsatkichlargacha taqdim etilayotgan statistik ma'lumotlarning hajmi va sifatiga nisbatan o'ziga xos talablarga ega. Ushbu talablar majmui va ularni amalga oshirish shartlari BMT va boshqa xalqaro tashkilotlar mutaxassislari tomonidan ishlab chiqilgan xalqaro statistik standartlarda umumlashtirilgan (N.E. Grigoruk, S.A Galkin M. Grigoruk N Evgenevna , G.A Aleksevich, 2015).

Tashqi savdo aylanmasi kapitalistik mamlakatlarda milliy iqtisodiyot holatining eng muhim ko'rsatkichlaridan biridir. Import va eksport qiymatining nisbatiga, ya'ni mamlakat savdo balansiga ham katta ahamiyat beriladi. Eksport qiymatining import qiymatiga nisbati o'z-o'zidan ko'rsatkich emas, chunki og'irlilik markazi aylanma tovar massasi tarkibida, aynan qaysi mamlakat eksport va import qiymatida yotadi. To'lov balansini tashkil etuvchi to'lovlar va tushumlarning umumiy massasida import va eksport operatsiyalarining ulushi qancha ko'p bo'lsa, ma'lum bir mamlakat uchun savdo balansining holati shunchalik katta bo'ladi. Hozirgi vaqtda, kapitalizmning umumiy inqirozi davrida, bozorlar uchun kurash nihoyatda keskinlashgan bir paytda, barcha kapitalistik mamlakatlar savdo balansida maksimal faollikka intilmoqda (S.N Bakulin, D.D Mishutsin).

Agar eksport importdan oshsa savdo balansi faol, import eksportdan oshsa passiv hisoblanadi. Savdo profitsiti eksport va import qiymati o'rtasidagi farqni anglatadi. Faol savdo balansida balans ijobiy bo'ladi (aksi holatda, passiv savdo balansi bilan, balans salbiy bo'ladi (minus belgisi bilan);

Savdo balansi va uning balansidan to'g'ri foydalanish uchun uning iqtisodiy mazmunini aniq tushunish kerak, chunki eksport va import tovarlarini baholash usullariga qarab, savdo balansining iqtisodiy mazmuni va uning balansi sezilarli darajada o'zgaradi. Masalan, importni cif (xarajat, sug'urta, yuk tashish) narxlarida baholashda tranzit va yuk tashishdagi tovarlarni sug'urtalash xarajatlari hisobga olinadi; aksincha, importni FOB (bortda bepul) narxlarida baholashda xorijda tashish xarajatlari va tranzitda bo'lgan tovarlarni sug'urtalash hisobga olinmaydi (S.N Bakulin, D.D Mishutsin).

Tashqi savdo aylanmasi (TSA) (yanvar-mart, mlrd.AQSH doll)




1.1-rasm.Tashqi savdo aylanmasi

Manba: stat.uz


1.1-rasmda O'zbekiston Respublikasida Tashqi savdo aylanmasi yanvar-mart oylarida o'sishi qayd etilgan. 2020 yilda eksport 4,8 mlrd.AQSh dollarni import esa 4,8 mlrd.AQSH dollarni tashkil etgan. 2024 yilga kelib jami tashqi savdo aylanmasi 15,8 mlrd AQSH dollarni tashkil qilmoqda. 2020 yilgan nisbatan Eksport 51,6%, import esa 51,06 %ga o'sish ijobiy bo'lsada, mamalakat iqtisodiyoti uchun salbiy hisoblanadi.

Tovar va xizmatlar tarkibi (2024 yil yanvar-mart, mln.AQSH doll)

Eksport



Import



1.2-rasm.Tovar va xizmatlar tarkibi

Manba: stat.uz

1.2-rasmda O'zbekiston Respublikasida tovar va xizmatlar tarkibi berilgan. Bunda eksport bo'yicha eng yirik tovar kimyoviy moddalarning eksporti 2664,3 mln.AQSH dollarga teng bo'lsa, import bo'yicha 3541,8 mln.AQSH dollarga teng. Sanoat mahsulotlari eksporti 1022,1mln.AQSH dollarga, importi esa 1550,3mln.AQSH dollarga va oltin eksporti 352,9mln.AQSH dollarga, mineral yoqilg'i va shunga o'xshash materiallar importi 1016,7 mln.AQSH dollarga teng ekanligi ko'rsatilgan.

Asosiy hamkor davlatlarning ulushi (2024- yil yanvar-mart, % da)



1.3-rasm. Asosiy hamkor davlatlarning eksport va importdagi ulushi

Manba: stat.uz

1.3-rasmda 2024-yil yanvar-mart oylarida, asosiy hamkor mamlakatlarlarning eksportdagi ulushi Rossiyada 11,3 %, XXR Xitoyda 7,1 %, Qozog'istonda 4,6%, Turkiyada 4,1%ni tashkil qiladi. Importdagi ulushi esa XXRda 27,1%, Rossiyada 22,0%, Qozog'istonda 6,8 % va Koreya Respublikasida 5,6 %ni tashkil etadi.

Metodologiya

Tadqiqotni amalga oshirish jarayonida yig'ilgan ma'lumotlar asosida ekonometrik tahlil o'tkazdir. Bunda stat.uz ma'lumotlariga asoslanib, Biz 2010 yildan 2023 yilgacha bo'lgan davrda, O'zbekiston Respublikasida YaIM, asosiy kapitalga investitsiyalar hajmi va kichik biznes korxona subyektlari mahsulot hajmi kabi o'zgaruvchi omillar, natijaviy omil sifatida tovarlar va xizmatlar eksporti va importiga ta'siri ifodalangan. Ushbu tadqiqotda panelda standart deviation va OLS regressiya modellarida orqali bajarilgan.

Standart deviation (standart og'ish) – statistika ma'lumotlar nuqtalarining tarqalish darajasi yoki uning o'rtacha qiymatiga nisbatan tarqalishi. U qiymatlar ma'lumotlar namunasi bo'ylab qanday tarqalishini aytadi va bu ma'lumotlar nuqtalarining o'rtacha qiymatdan o'zgarishining o'lchovidir. Ma'lumotlar to'plamining, namunaning, statistik populyatsiyaning, tasodifiy o'zgaruvchining yoki ehtimollik taqsimotining standart og'ishi, uning dispersiyasining kvadrat ildizidir .

Bizda kuzatuvlar soni n bo'lsa va kuzatishlar x_1, x_2, \dots, x_n , keyin qiymatning o'rtachadan o'rtacha og'ishi sifatida aniqlanadi $\sum_{i=1}^n (x_i - \bar{x})^2$. Biroq, o'rtachadan og'ish kvadratlari yig'indisi dispersiyaning to'g'ri o'lchovi emasga o'xshaydi. Agar o'rtacha kvadratik farqlarning o'rtacha qiymati kichik bo'lsa, bu kuzatishlar x_i o'rtachaga yaqin \bar{x} ekanligini ko'rsatadi. Bu

dispersiyaning past darajasi hisoblanadi. Agar bu summa katta bo'lsa, bu kuzatuvlarning o'rtachadan yuqori \bar{x} darajada tarqalishini ko'rsatadi. Shunday qilib, xulosa qilganda Biz dispersiyaning to'g'ri o'lchovi sifatida $\frac{1}{n} \sum_{i=1}^n (x_i - \bar{x})^2$ olamiz va bu dispersiya (σ^2) deb ataladi. Dispersiyaning musbat kvadrat ildizi standart og'ishdir.

$$s = \sqrt{\frac{\sum (x_i - \bar{x})^2}{n - 1}}$$

Bu yerda,

x_i = Namunaviy standart og'ish belgisi

\bar{x} = kuzatishlarning o'rtacha arifmetik qiymati

n = kuzatishlarning umumiy son

Bunda 1.1 - jadvalda

(B.Y.Xodihev, T.SH.Shodihev, B.B.Berkinov, 2017) Regression tahlil bog'liqlikning unda natijaviy omilning o'zgarishi bir yoki bir necha omillarning ta'siri bilan shartlangan, natijaviy omilga ta'sir ko'rsatuvchi boshqa barcha omillar ko'pligi esa doimiy va o'rtacha qiymat sifatida qabul qilinadigan tahliliy shaklini aniqlashdan iborat. Regression tahlilning maqsadi – natijaviy omil shartli o'rtacha qiymatining omilli belgilarga funksional bog'liqligini baholashdan iborat. Regression tahlilning asosiy omili shundan iboratki, faqat natijaviy omil taqsimlashning normal qonuniga, ta'sir etuvchi omillar esa taqsimlashning ixtiyoriy qonuniga bo'ysunadi. Bunda regression tahlilda natija (u) va omillar (x_i) o'rtasidagi sabab-oqibat bog'liqlikning mavjudligi oldindan nazarda tutiladi. Regressiya tenglamasi yoki ijtimoiy-iqtisodiy hodisalar bog'liqlik modeli quyidagi funksiya bilan ifodalanadi: Bunda juft regressiya: natijaviy va bitta omil o'rtasidagi bog'liqliknı tavsiflaydi.

$$y_x = f(x).$$

bu yerda k –omillar soni.

$$y_x = f(x_1, x_2, x_3, \dots, x_n)$$

Bunda ko'plik regressiyasi mavjud bo'lib, u natijaviy omil, ikki va undan ko'p omil o'rtasidagi bog'liqliknı tavsiflaydi.

Chiziqli juft regressiya quyidagi tenglama bilan tavsiflanadi:

$$y_i = a_0 + a_i x + \varepsilon$$

Bunda, a_0, a_i - model o'zgaruvchilari;

ε -tasodifiy kattalik qoldiq miqdori.

Chiziqli juft regressiya modeli parametrlarining mazmuni: a_0 – regression tenglamaning erkin koeffisiyenti (a'zosi). Iqtisodiy ma'noga ega emas va, agar omil $x = 0$ bo'lsa, u natijaviy omilning belgi qiymatini ko'rsatadi.

a_i - regressiya koeffisiyenti, agar x o'zgaruvchi bir o'lchov birligiga oshirilsa, u natijaviy omil o'rtacha qancha miqdorga o'zgarishini ko'rsatadi. Regressiya koeffitsiyentidagi belgi bog'liqliknı yo'nalishini ko'rsatadi. $a_i > 0$ bo'lganda bog'liqlik to'g'ri, $a_i < 0$ bo'lganida bog'liqlik teskari hisoblanadi.

ε - mustaqil, normal taqsimlangan tasodifiy kattalik, nolli matematik kutishli ($M_\varepsilon = 0$) va doimiy dispersiyali ($D_\varepsilon = \sigma^2$) qoldiq y ning o'zgarishi x ning o'zgarishi bilan noaniq ta'riflanishini aks ettiradi, chunki ushbu modelda hisobga olinmagan boshqa omillar ham ishtirok etadi. Modellar a_0, a_i parametlarining ularda y_i natijaviy omil amaldagi qiymatlarning regressiya tenglamasi bo'yicha hisoblab chiqilgan qiymatlardan og'ishlari kvadratlarining yig'indisi eng kichik bo'lgani topiladi ya'ni:

$$\sum_{i=1}^n (y_i - \bar{y})^2 = \sum_{i=1}^n (y_i - a_0 - a_1 x_i)^2 \rightarrow \min$$

$$na_0 + a_1 \sum_{i=1}^n x_i = \sum_{i=1}^n y_i; a_0 \sum_{i=1}^n x_i + a_1 \sum_{i=1}^n x_i^2 = \sum_{i=1}^n x_i y_i;$$

a_0, a_i parametrlari qiymatini aniqlash uchun formulalar

$$a_1 = \frac{\sum_{i=1}^n (x_i - \bar{x})(y_i - \bar{y})}{\sum_{i=1}^n (x_i - \bar{x})^2}; a_0 = \bar{y} - a_1 \bar{x}.$$

Ekonometrik tahlil

Ushbu tadqiqot ishida Eksport va importga jadvalda keltirilgan omillarning o'zaro ta'siri stata panelida asosida baholangan. 1.1 va 1.3-Jadvalda exportga nisbatan standart og'ish s=81485.121 ga teng ekanligi hisoblangan. Importga nisbatan standart og'ish s=153842.93 Mean eksport uchun standart o'gishning o'rta arifmetigi 84607.729 ga, YaIM uchun esa 407902.14ga teng. Import uchun o'rta arifmetik 153384.74ga teng Minimum bu boshlang'ich nuqta va maximum esa tugash nuqtasi hisoblanadi.

1.2-Jadvalda Tovar va xizmatlar eksportini asosiy kapitalga investitsiyalar hajmi, YaIM va kichik tadbirkorlik subyektlarining mahsulot hajmi kabi omillarni o'zaro ta'siri baholandi. Bunga ko'ra: Prob > F = 0,0000 : Bu modelning p-qiymati (p<0,05 bo'lganda ahamiyatli). Bu Y ni baholash uchun X ning ishonchlilagini ko'rsatadi. R-kvadrat = 0,993 : R-kvadrat y o'zgaruvchi variatsiyaning qanaqa ulushi modelda hisobga olinganligini va ushbu ulush unga x o'zgaruvchining ta'siri shartlashganini bildiradi. y ning dispersiya miqdorini ko'rsatadi. Bu holda determinatsiyaning juft koeffitsiyenti 0.993 ekanligini ko'rsatadi. YaIMning taxminiy koeffitsienti 1 %ga oshsa, ekspotning 0,496ga o'shishiga olib keladi. YaIM va Kichik biznes subyektlarining mahsulot hajmi koeffitsiyenti ijobi, Investitsiyalar hajmi esa sezilarli ta'sir ko'rsatmaydi. Biroq, jadvalda umumiy Fisher testi yordamida ishonchliligi tekshirildi va statistik jihatdan ahamiyatli deb topildi.

1.4-Jadvalda Tovar va xizmatlar importini asosiy kapitalga investitsiyalar hajmi, YaIM va kichik tadbirkorlik subyektlarining mahsulot hajmi kabi omillarni o'zaro ta'siri baholandi. Bunda YaIM ning 1 % o'sishi importning 0,496 %ga o'shishiga olib keladi. Investitsiyalarning 1%ga o'sishi, importni 0,978ga o'shishiga olib keladi. Umumiy olganda, Prob > F = 0,0000 Fisherning F-testi yordamida ishonchliligi tekshirildi. Barcha o'zgaruvchilarning koeffitsiyentlari ijobiy va statistik jihatdan ahamiyatli deb hisoblandi.

1.1-Jadval**Descriptive Statistics**

Variable	Obs	Mean	Std. Dev.	Min	Max
Yillar	14	2016.5	4.183	2010	2023
Export	14	84607.729	81485.121	16231.7	260790.9
	14	120640.76	111884.4	16463.7	356071.4
Asosiykapitalgainv~r					
YaIM	14	407902.14	315795.07	78936.6	1066569
Kichiktadbirkorlik~n	14	69026.471	52654.061	10132.9	176523.9

1.2-Jadval**Linear regression**

Export	Coef.	St.Err.	t-value	p-value	[95% Conf	Interval]	Sig
YaIM	.496	.09	5.52	0	.2	.6	
					96	97	**
Asosiykapital gainv~r	.137	.149	0.92	.	-	.4	
				377	.194	69	
Kichiktadbirk orlik~n	-1.753	.352	-4.98	.	-	-	
				001	2.538	.969	**
Constant	-	4702.01	-2.85	.	-	-	
				017	23863.45	2909.997	*
		13386.72			9		
		8					
Mean dependent var		84607.729	SD dependent var		81485.1		
R-squared		0.993	Number of obs		21		
F-test		488.154	Prob > F		14		
Akaike crit. (AIC)		293.413	Bayesian crit. (BIC)		0.000		
					295.969		

*** $p < .01$, ** $p < .05$, * $p < .1$

1.3-Jadval**Descriptive Statistics**


Variable	Obs	Mean	Std. Dev.	Min	Max
Yillar	14	2016.5	4.183	2010	2023
Import	14	153384.74	153842.93	19713.1	485060.9

	14	120640.76	111884.4	16463.7	356071.4
Asosiykapitalgainv~r					
YaIM	14	407902.14	315795.07	78936.6	1066569
Kichiktadbirkorlik~n	14	69026.471	52654.061	10132.9	176523.9

1.4-Jadval**Linear regression**

Import	Coef.	St.Err.	t-value	p-value	[95% Conf	Interval]	Sig
Asosiykapital gainv~r	.978	.242	4.04	.	.4	1.	
lnYaIM	-	25414.55	-2.23	.002	39	517	**
	56612.52	7		.	-	14	
	1			05	113239.6	.642	
Kichiktadbirk orlik~n	1.686	.688	2.45	.	.1	3.	
Constant	633326.2	293251.8	2.16	.034	52	22	*
	5	7		.	-	12	
				056	20079.62	86732.1	
					5		
Mean dependent var		153384.736	SD dependent var		153842.		
R-squared		0.987	Number of obs		927	14	
F-test		255.766	Prob > F		0.000		
Akaike crit. (AIC)		320.171	Bayesian crit. (BIC)		322.727		

*** $p < .01$, ** $p < .05$, * $p < .1$



1.4-rasm. Kernel density zichligi.

1.4-rasmida Turli tekislash o'tkazuvchanlik kengligidan foydalangan holda 100 ta oddiy taqsimlangan tasodifiy sonlarning Karel Density zichligini baholangan.

Xulosa va takliflar

O'zbekiston Respublikasida tarkibiy o'zgarishlarni iqtisodiyotning soha va tarmoqlarini diversifikatsiya va modernizatsiya qilishni izchil davom ettirish, ishlab chiqarishni texnik va texnologik yangilash, shuningdek, transport, muhandislik, kommunikatsiya va ijtimoiy infratuzilmalarni rivojlantirish jarayonlarini yanada chuqurlashtirishga qaratilgan faol investitsiya siyosati olib borilishi natijasida mamlakat iqtisodiyoti rivojlandi.

Umuman olganda, YaIM o'sishi, inflyatsiya darajasi, valyuta kurslari va foiz stavkalari kabi mamlakatdagi umumiy iqtisodiy sharoitlar eksport o'sishiga sezilarli ta'sir ko'rsatishi mumkin. Kuchli iqtisodiyotga ega mamlakatda eksportga talabning oshishiga olib keladi. Mamlakatlar o'rtasidagi savdo kelishuvlari bojlar va boshqa savdo to'siqlarini kamaytirish orqali savdoni osonlashtirishi mumkin, bu esa korxonalar uchun o'z mahsulotlarini eksport qilishni osonlashtiradi. Texnologik taraqqiyot ishlab chiqarish jarayonlari samaradorligini oshirish, harajatlarni kamaytirish va tovarlar sifatini oshirish, ularni jahon bozorida yanada raqobatbardosh qilish imkonini beradi. Qulay ishbilarmonlik muhiti xorijiy sarmoyalarni jalb qilishi va tadbirkorlik sub'ektlarini eksport faoliyati bilan shug'ullanishga undashi mumkin. Savdo, soliqqa tortish, tartibga solish va subsidiyalar bilan bog'liq mamlakat siyosati eksport o'sishiga sezilarli ta'sir ko'rsatishi mumkin. Qo'llab-quvvatlovchi siyosat korxonalarga eksport qilishdagi to'siqlarni yengib o'tishga va xalqaro savdoni rivojlantirishga yordam beradi. Valyuta kurslarining o'zgarishi eksportning raqobatbardoshligiga ta'sir qilishi mumkin. Kuchsizroq milliy valyuta eksportni xorijiy xaridorlar uchun qulayroq qilib, eksport o'sishini potentsial ravishda oshirishi mumkin. Raqobat ustunligi: mahsulot sifati, texnologiyil innovatsiyalar, sun'iy intellektdan foydalanish, brending va marketing strategiyasi kabi omillar korxonalarga jahon bozorida raqobatdosh ustunlik berishi eksport va importning o'sishiga hissa qo'shishi mumkin. Ushbu omillar mamlakatlar eksport o'sishini qo'llab-quvvatlovchi va rag'batlantiradigan, iqtisodiy rivojlanish va farovonlikka olib keladigan muhitni yaratishi mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. www.gov.uz – O'zbekiston Respublikasi hukumatining rasmiy sayti.
2. www.stat.uz – O'zbekiston Respublikasi davlat statistika qo'mitasining rasmiy sayti.
3. www.lex.uz – O'zbekiston Respublikasi Qonun hujjalari ma'lumotlari milliy bazasi
4. Гулямов С.С., Чепель С.В., Сиддиков А.Ж. "Проблемы обеспечения макроэкономического равновесия и внешней сбалансированности Узбекистана". Монография. Ташкент.: «Госкомстат», 2020 – 120 с.
5. Актуальные вопросы внедрения международных стандартов в статистику внешней торговли РОССИИ Н.Е. Григорук, С.А. Галкин М. Григорук Наталия Евгеньевна, Галкин Сергей Алексеевич Актуальные вопросы внедрения международных стандартов в статистику внешней торговли России // Вестник

МГИМО. 2015. №1 (40). URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/aktualnye-voprosy-vnedreniya-mezhdunarodnyh-standartov-v-statistiku-vneshney-torgovli-rossii> (дата обращения: 12.07.2024).

6. В.Y.Xodiyev, T.SH.Shodiyev, Berkinov B.B. Ekonometrikaga kirish: ўқув қўлланма. – Т.: ТДИУ, 2017. -144 б.

7. Ismailova, N.S. Jahon iqtisodiyoti va xalqaro iqtisodiy munosabatlar [Matn]: darslik / N.S. Ismailova, U.U. Shagazatov. — Toshkent: Noshir nashriyoti, 2019. - 320 b

8. Vahabov A.V. Jahon iqtisodiyoti va xalqaro iqtisodiy munosabatlar: darslik /A.V. Vaxabov, D.A. Tadjibayeva, Sh.X. Xajibakiyev. — Toshkent: Baktria press, 2015. — 584 b.

9. Piskulov Yu. V. Geopoliticheskie riski v global'- noi ekonomike i mezdunarodnoi torgovle (Geopolitical Risks in Global Economy and International Trade), Rossiiskii vneshneekonomiceskii vestnik, 2015, No. 2, pp. 14—21.

10. С. Н. Бакулин, Проф. Д. Д. Мишустин Статистика внешней Торговли, в/о „Международная книга москва” 2015

11. Khasbulatov R. I. Torgovo-ekonomicheskie sanktsii, embargo, torgovye blokady v mirovoi politike: s Drevnego mira do ikh ispol'zovaniya protiv Rossii (Trade-Economic Sanctions, Embargoes, Commercial Blockades in the World Politics: from Ancient World to their Use against Russia), Mezhdunarodnaya torgovlya: vchera, segodnya, zavtra, monografi ya, M., Rusains, 2017, pp. 12—36.

12. Gladkov I. S. Vneshnyaya torgovlya Evropeiskogo Soyuza v 2018: presto s tyul'panami (Foreign Trade of the European Union in 2018: Presto with Tulips), Vlast', 2019, T. 27 No. 3, pp. 161—166, <https://doi.org/10.31171/vlast.v27i3.6435>.

13. The World Bank open data

Copyright: © 2024 by the authors. This work is licensed under a Creative Commons Attribution- 4.0 International License (CC - BY 4.0)

